



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 396 sahifa,  
18-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori .....	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rmi .....	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari .....	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi .....	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi .....	60
<i>Xolmurodova Sarvinoz</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil .....	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi .....	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi .....	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash .....	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar .....	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati .....	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish .....	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi .....	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish .....	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements .....	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari .....	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish .....	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi .....	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя .....	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor .....	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Ислombек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar .....	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri .....	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli .....	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni .....	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari .....	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish .....	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari.....	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti .....	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction ..... 205 A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova
	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati ..... 208 Majitov Turg'unali Anvar o'g'li
	Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari ..... 214 Ismoilova Muattar Ilyosovna
	Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari ..... 219 Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li
	Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish ..... 222 Murodova Sayyora Qanoatovna
	Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari ..... 226 Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li
	Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari ..... 230 Abdunabiyeva Kamola Mansurovna
	Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili ..... 236 Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi
	Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ..... 240 Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li
	Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish ..... 245 Raximov Zokir Toshmirovich
	Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari ..... 249 Temirov Shoirbek Raimjonovich
	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish ..... 253 Kimsanova Rahnamo Solijonovna
	Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish ..... 257 Muratov Muzaffar Shermamatovich
	Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari ..... 261 Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li
	Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari ..... 264 Oblayeva Lobar Erdonovna
	STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations ..... 268 Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi
	Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari ..... 272 Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna
	Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi ..... 276 Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi
	Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools ..... 279 S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova
	Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration ..... 282 Shahlo Obidova
	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 286 Shodmonova Shoirsa Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi
	Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari ..... 290 Turakulova Feruza Mamadoli qizi



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки) .....	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие .....	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	
Oila tushunchasi uning ijtimoiy ahamiyati haqida sharq mutafakkirlarining qarashlari.....	321
<i>Shokirov Xolida O'rozboq qizi, Abdurashidova Sarvinoz Akrom qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining uyg'unligi .....	325
<i>Bekmirzayev Shavkat Olim o'g'li</i>	
Global ta'lim tendensiyalari asosida maktabgacha ta'lim mazmunini transformatsiyalash mexanizmlari .....	329
<i>Haqqiyeva Fotima Olimjonovna</i>	
O'zbekiston mustaqillik taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'lim paradigmalarning evolyutsion tahlili .....	333
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Sayfullayeva Parvina</i>	
Malaka oshirish tizimida o'qituvchi-pedagoglarning hamkorlikka asoslangan yondashuvining ilmiy ahamiyati.....	338
<i>Sobirova Lobar Raximovna</i>	
Qutqaruvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishda ilmiy-metodologik yondashuvning ahamiyati .....	343
<i>Abdunosir Abdurasulovich G'afurov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishi kamchiliklarini bartaraf etishda pedagogik yondashuv .....	347
<i>To'rayeva Dilbar, Zulayxo Nazarova</i>	
Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarining mazmun-mohiyati .....	350
<i>Samadova Mahliyo, Zulayxo Nazarova</i>	
Harakatli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish .....	354
<i>Yaxyayeva Sojida Abduraximovna, Mustafayeva Dilfuza Jumanovna</i>	
Multimodal yondashuv asosida talabalarning ekologik kompetensiyalarini takomillashtirish tizimining ahamiyati.....	358
<i>O'sarova Muborak Fahriddinovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyati samaradorligini monitoring qilish tizimini loyihalashning tashkiliy-pedagogik asoslari.....	362
<i>Kurbanov Dilmurat Marupjanovich</i>	
Shaxs kamolotida ijtimoiy moslashuv va ma'naviy tarbiyaning ahamiyati .....	367
<i>Nazira Axmadjonovna Dadaboyeva</i>	
Individual yondashuv asosida maktab o'quvchilarida raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish va raqamli texnologiyalar integratsiyasi .....	371
<i>Xaydarova Zilola Normurodovna, Hasanov Samir Xayrulloevich</i>	



Tasviriy san'at mashg'ulotlarida differensial yondashuvning psixologik-pedagogik asoslari .....	375
<a href="#">Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna</a>	
Onlayn muloqot strategiyalarining talaba kommunikativ kompetensiyasiga ta'siri .....	379
<a href="#">Davlatova Ra'no Haydarovna, Islomova Shahlo Madat qizi</a>	
Ajrim yoqasidagi oilalarni ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish .....	385
<a href="#">Tojibayeva Nargiza Keldibekovna</a>	
Raqamli muhitda yolg'izlik fenomenining nazariy tahlili.....	389
<a href="#">Turg'unboyeva Nodira Baxtiyor qizi</a>	
Психологические последствия буллинга для личности подростка и его социализации.....	392
<a href="#">Амирова Луиза Маратовна</a>	



# GLOBAL TA'LIM TENDENSIYALARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM MAZMUNINI TRANSFORMATSIYALASH MEXANIZMLARI



Haqqiyeva Fotima Olimjonovna

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-3319-4714>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada global ta'lim tendensiyalari asosida maktabgacha ta'lim tizimini transformatsiyalash masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv hamda integratsiyalashgan ta'limning maktabgacha ta'lim tizimidagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida bolalarning intellektual, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning o'rnini yoritilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, transformatsiya, global ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, integratsiyalashgan ta'lim, pedagogik innovatsiyalar, ta'lim muhiti.

**Abstract:** This article analyzes the issues of transforming the preschool education system on the basis of global educational trends from a scientific and pedagogical perspective. It also reveals the importance of innovative pedagogical technologies, digital learning environments, competency-based approaches, and integrated education in the preschool education system. The article highlights the role of innovative approaches in developing children's intellectual, social, and communicative competencies within the modern educational process. The research findings contribute to the development of scientific and practical recommendations aimed at improving the preschool education system.

**Key words:** preschool education, transformation, global education, competency-based approach, innovative technologies, digital technologies, integrated education, pedagogical innovations, educational environment.

**Аннотация:** В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируются вопросы трансформации системы дошкольного образования на основе глобальных образовательных тенденций. Также раскрывается значение инновационных педагогических технологий, цифровой образовательной среды, компетентностного подхода и интегрированного обучения в системе дошкольного образования. В статье освещается роль инновационных подходов в развитии интеллектуальных, социальных и коммуникативных компетенций детей в условиях современного образовательного процесса. Результаты исследования направлены на разработку научно-практических рекомендаций по совершенствованию системы дошкольного образования.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, трансформация, глобальное образование, компетентностный подход, инновационные технологии, цифровые технологии, интегрированное обучение, педагогические инновации, образовательная среда.

## KIRISH

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali, zamonaviy kadrlar tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda [1; 4-b.].

Shaxsning rivojlanishi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor hamda sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tizimi bolani har tomonlama rivojlantirishning dastlabki bosqichi bo'lib, unda ta'lim va tarbiya uyg'unligi asosiy tamoyil hisoblanadi [2; 11-b.].

Maktabgacha ta'limning mazmuni zamonaviy jamiyat ehtiyojlari asosida takomillashtirilib borilishi zarur. Shu jihatdan global ta'lim tendensiyalarini o'rganish va ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Global ta'lim tendensiyalari asosida maktabgacha ta'lim mazmunini transformatsiyalash an'anaviy yondashuvdan bolaga yo'naltirilgan, raqamli va ijodiy rivojlanishga o'tishni anglatadi. Mazkur transformatsiya jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va global standartlar asosida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi shaxs kamolotining boshlang'ich poydevori sifatida inson kapitalini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi<sup>[3: 18-b.]</sup>.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barkamol shaxs tarbiyasi hamda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari ko'plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ilmiy manbalarda shaxs rivojlanishining jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatlarini o'zaro uyg'un holda shakllanishi ta'kidlanib, maktabgacha ta'lim bosqichi inson kamolotining muhim poydevori sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar tomonidan ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, uni global ta'lim tendensiyalari asosida takomillashtirish va ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish zarurligi asoslab berilgan.

Jumladan, Sh.M. Mirziyoyev o'z asarlarida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviy va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. L.S. Vigotskiy va J. Piaje tadqiqotlarida bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit, faoliyat va ta'limning muhim o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda STEAM texnologiyalari, multimedia vositalari va raqamli platformalardan foydalanish bolalarning kreativ tafakkuri, kommunikativ kompetensiyalari hamda ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

Ayrim olimlar innovatsion ta'lim texnologiyalarini ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholab, interaktiv metodlar, integratsiyalashgan ta'lim modeli va raqamli infratuzilmaning maktabgacha ta'lim tizimidagi ahamiyatini asoslab berganlar. Shu bois, maktabgacha ta'lim mazmunini transformatsiyalash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va global ta'lim tajribalaridan samarali foydalanish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda STEAM texnologiyalari, multimedia vositalari va raqamli platformalardan foydalanish bolalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ta'limning integratsiyalashgan modeli bolalarda ijtimoiy moslashuvchanlik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasi kadrlarini tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyati xalqaro tajribalar asosida bolalarning rivojlanishini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishga, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga hamda ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan.

### TAHLIL VA NATIJALAR


Innovatsion ta'lim texnologiyalari maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishning muhim vositasidir. Innovatsion ta'lim texnologiyasi – bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish maqsadida mavjud usullar va vositalarni yangilash yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv hamda ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasidir. Ta'limdagi innovatsiyalar esa o'qitish va o'rgatish sohasidagi yangiliklarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy-nazariy qarashlar hamda tushunchalarni ifoda etadi.

Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida bilim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarida qo'llanilishi mumkin. Innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

- 1. Zamonaviy, yaxshi tuzilgan tarkib.** Uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeliklariga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi kompetensiyalardir. Mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o'z ichiga oladi.
- 2. Zamonaviy, innovatsion o'qitish usullarini qo'llash.** Bunday usullar bo'lajak mutaxassisning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, o'quvchilarni faol bilim va amaliy faoliyatga jalb etishga, bilish jarayonida tashabbuskorlikni namoyon etishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
- 3. Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi.** U o'qitishning yangi shakl va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.



Ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda. Ularning asosiy guruhlarini 1-rasmda ko'rish mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm: Innovatsion texnologiya turlari

Mavzu materialini o'rganish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki AKTdan samarali foydalanish. Ushbu innovatsion texnologiyalardan foydalanish axborot jamiyatining rivojlanishi va hayotning barcha sohalarida axborot vositalarini faol joriy etish bilan bog'liq.

1. **Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar.** Ushbu texnologiyalar o'qitish va tarbiyalashda shaxsni ustuvor o'ringa qo'yishga qaratilgan. Butun ta'lim jarayoni shaxsning individualligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, uni rivojlantirishga yo'naltiriladi.
2. **O'quv jarayonini axborot-tahliliy ta'minlash.** Ushbu guruh texnologiyalaridan foydalanish har bir o'quvchi, sinf va ta'lim tashkilotining rivojlanishini tadqiq qilish hamda ularni adekvat baholashga qaratilgan.
3. **Intellectual rivojlanish monitoringi.** Bu texnologiyalar grafik ma'lumotlardan foydalanish, test tizimi va yangi baholash usullariga asoslangan bo'lib, ular o'quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini hamda umuman ta'lim sifatini kuzatish imkonini beradi.
4. **Ta'lim texnologiyalari.** O'quv jarayonini tarbiyadan ajratib bo'lmaydi. Shu sababli shaxsni va uning asosiy fazilatlarini rivojlantirishning yangi usullari joriy etilmoqda.
5. **Ta'limiy texnologiyalar.** Ular ta'lim tashkiloti rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunday texnologiyalar an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi. O'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audio-vizual vositalar, multimedia hamda tabaqalashtirilgan o'qitish usullaridan foydalanish shular jumlasiga kiradi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda innovatsiyalar boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyaning ta'lim jarayonida qanday o'z aksini topganligini quyidagilarda ko'rish mumkin [4; 16-b.]:

- ta'lim sifatini oshirish;
- zamonaviy metodlar orqali o'qitish jarayonini takomillashtirish;

- innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish;
- xalqaro tajribaga moslashish hamda global standartlarga mos pedagogik kadrlarni tayyorlash.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion metodlarni joriy etish zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlarda maktabgacha ta'lim mazmuni kreativ fikrlash, STEAM ta'limi hamda interaktiv o'yin texnologiyalari asosida tashkil etilmoqda <sup>[5: 52-b.]</sup>. Bu esa bolalarda mustaqil fikrlash, kommunikativ kompetensiyalar va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi <sup>[6: 66-b.]</sup>.

Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- muammoli ta'lim (Problem-Based Learning - PBL) - talabalar real hayotiy muammolarni hal qilish orqali bilim oladilar;
- flipped classroom (aylantirilgan sinf modeli) - nazariy bilimlar mustaqil o'rganilib, darsda amaliy muhokamalar olib boriladi;
- gamifikatsiya (o'yinlashtirish) - ta'lim jarayonida o'yin elementlaridan foydalanish orqali motivatsiyani oshirish;
- STEM va STEAM metodlari - ilm-fan, texnologiya, muhandislik va san'at yo'nalishlarini integratsiya qilish;
- individual ta'lim dasturlari - har bir talabaga mos ravishda o'quv jarayonini tashkil etish.

Innovatsion pedagogik metodlardan samarali foydalanish ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib, o'qitish samaradorligini oshirish va interfaol ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali o'quv jarayonini yanada zamonaviylashtirish, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish va talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirish mumkin.

Raqamli texnologiyalarni ta'limga joriy etishning afzalliklari quyidagilardan iborat: ta'lim sifatini oshirish - innovatsion texnologiyalar o'qitish jarayonini qiziqarli, interfaol va samarali qiladi; talabalarning mustaqil ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash - raqamli resurslardan foydalanish ularning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi; o'qituvchilarning mehnatini yengillashtirish - avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va onlayn dars materiallari orqali samaradorlik oshadi; masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish - talabalar istalgan joyda va vaqtda ta'lim olishlari mumkin; shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari orqali har bir talaba uchun individual ta'lim dasturlarini yaratish imkoniyati mavjud <sup>[7: 202-b.]</sup>.

Maktabgacha ta'lim mazmunini global ta'lim tendensiyalari asosida transformatsiyalash kompetensiyaviy yondashuv, integratsiyalashgan ta'lim, raqamli pedagogika mexanizmi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, individual yondashuv mexanizmi, monitoring va diagnostika orqali amalga oshiriladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim muhiti va kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlar tajribasini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish va innovatsion metodlarni keng joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda raqamli pedagogika asosida takomillashtirish maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois rivojlangan davlatlar tajribasini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.Sh.Mirzayeva Maktabgacha pedagogika O'quv qo'llanma. Toshkent-2022-y. 147 b
2. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'latova va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - Toshkent: "ILM ZIYO", 2011. - 184 b.
3. Sh.Q. Toshpo'latova Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. - 142 b.
4. Sh.Sh.Olimov, Sh.X.Samiyeva, N.X.Aslanova, F.J.Ro'ziyev. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari. Buxoro 2022-y.241 b
5. UNESCO. Early Childhood Care and Education Global Report. - Paris: UNESCO Publishing, 2024. - 95 p.
6. Rao N. Early Childhood Education and Global Transformation. - London: Routledge, 2022. - 210 p.
7. F.O. Mirzayeva ta'lim jarayonini transformatsiya qilishning samarali yo'llari. Maktabgacha va maktab ta'limi. Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal. Toshkent. 2025-y. 201-205-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.